O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor __________ Sh.Sirojiddinov
2022-yil "25" avgust

# FOLKLORSHUNOSLIK NAZARIYASI
fanining

# O'QUV DASTURI (SILLABUSI)

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Magistratura mutaxassisligi:** 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya

Toshkent – 2022

| Fan/modul kodi 302 FN 1 9 | Fan/modul turi majburiy | Ta'lim tili o'zbek | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023 |
|---|---|---|---|

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | O'zbek folklori | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| 2 | O'zbek folklori | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| | **Jami:** | **10** | **4** | 120 | 60 | 0 | 60 | **0** | **180** | **300** |

## I. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsadi – folklorshunoslikning nazariy asoslarini yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek, o'zbek folklorshunosligida yetakchi bo'lgan ilmiy yo'nalishlarni dunyo folklorshunosligi bilan qiyosiy o'rganishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari quyidagicha belgilash mumkin:

– o'zbek folklorshnusoligidagi eng yetakchi mavzular tizimini yaxlit holda o'rganish;

– o'zbek folklori materiallarni qiyosiy folklorshunoslik asosida tadqiq etish va ular haqida magisrtlarga ilmiy bilimlarni berish;

– folklordagi doston janri tarkibi va unda badiiyatning o'ziga xos namoyon bo'lish yo'llarini ko'rsatish;

– mifologik tafakkur barcha san'at turlarining asosi ekanini, mifologik tasavvurlar bilan bog'liq bilimlar va badiiy obrazlarning ramziy timsoliy ma'nolarini talabalar ongiga singdirish;

– xalq nasri va qo'shiqlarida mifologik sujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon bo'lish yo'llarini ko'rsatish;

– o'zbek folklori va yozma adabiyot namunalarini qiyoslash orqali folklor san'atiga xos bo'lgan tushuncha va tasavvurlar, poetik tafakkurning yozma adabiyotda ko'chib o'tishi omillarini ilmiy asosda ko'rsatish va ularning xalqimiz madaniy merosida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- folklorshunoslik nazariyasi, folklor janrlari, xalq og'zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqidagi ***bilimga ega bo'lish;***

- xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish, o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi, shuningdek, folklor namunalarini tahlil qilish, ularni xalq orasidan yig'ish va tasniflash ***ko'nikmasini*** hosil qilish;

– talabalar o'zbek folklorshunoslik nazariyasining jahon folklorshunosligi merosida munosib o'mini anglashi va baholash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

**Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida test yoki yozma ish shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish yoki test shaklda o'tkaziladi.

*Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### I. Ma'ruza mashg'ulotlari

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| | | I-semestr | |
| 1. | Mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi. Folklorning o'ziga xos xususiyatlar | Mustaqillik davrida milliy ma'naviyatimiz hamda qadriyatlarimizga berilgayotgan yuksak e'tibor, folklor milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri ekanligi atroflicha yoritib beriladi. Mustaqillik davrida o'zbek folklorshunsligi yangi bir bosqichga ko'tarilganligi, xalq ijodi namunalarini yozib olish, tasniflash, chop etish va tadqiq etishda erishilayotgan yutuqlar, o'zbek folklorshunoslari olib borayotgan ishlarning xorijlik olimlar tomonidan etirof etilishi borasidagi ma'lumot va tushunchalar beriladi. | 2 |
| 2. | Folklorni o'rganilish tarixi | O'zbek folklorshunosligi fanining yuzaga kelishiga asos bulgan ilk manbalar. Narshaxiy, Maxmud Koshgariy kabi olimlarning asarlaridagi ilk folkloristik kuzatishlarning bu yo'nalishning kelib chiqishiga asos b o'lganligi. Folklorshunoslik tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari. Har bir davrning o'ziga xos belgilari.<br>Folklor asarlarining ilk bor adabiy, tarixiy va ilmiy manbalarga kiritilishi. «Buxoro tarixi», «Devonu lugotit turk» kabi manbalardagi folklor yozuvlarining ilmiy tahlili. « Qissai Rabguziy»dagi afsona va rivoyatlar. | 2 |
| 3. | Folklorshunoslik maktablari va metodlari | Dunyo folklorshunosligi tarixida mifologik maktabning shakllanish tarixi, manbalari va o'ziga xos taraqqiyot yo'li. Mifologik maktabning asosiy yo'nalishlari. Mif va uning folklorshunoslar tomonidan talqin qilinishi. Mifologik tasavvur va badiiy tafakkur. Mifologiyaning tabiati, tarkibi va uning insoniyat tafakkuri rivojidagi roli. Mifologik maktabning asosiy yutuqlari, ularning nazariy qarashlaridagi ilg'or yo'nalishlar va ba'zi bir ilmiy chalkashliklar. Yevropa va rus folklorshunosligida mifologik maktab nazariyalarining talqini. Jahon folklorshunosligi tarixida mifologik maktabning tutgan o'rni. | 2 |
| 4. | Folklorshunoslik metodlari | Folklorni tadqiq etuvchi ko'plab metodlar, jumladan tarixiy qiyosiy metod. biografik metod, strukutaral, lingvopoetik metod va ruhiy tahlil metodlari xususida ma'lumot va tushanchalar beriladi. Har bir metodning folklor matnini tadqiq etishdagi o'ziga xos yo'l va uslubi, yutuq va kamchiliklari, har bir metodning xalq ijodining u yoki bu janrini tadqiq etishdagi afzalliklari, bugungi o'zbek va dunyo folklorshunosligi tomonidan qo'llanilayotgan yetakchi metodlar to'g'risida tushuncha beriladi. | 2 |
| 5. | Folklorning tur va janrlarga bo'linishi | Badiiy ijod namunalarining tur va janrlarga bo'linishi, lirik, epik, dramatik turalarning o'ziga xos jihatlari, turli janrlarga bo'linishi, har bir janrning o'ziga xos xususiyati, folklordagi tur va janrlarning yozma adabiyot namunasi bilan o'xshash va farqli jihatlari haqida tushuncha beriladi. Tur va janr asarning qaysi adabiy turga taalluqliligi, hajmi va obrazlarining qurilishi usuli (ramziyligi, majoziyligi, hujjatliligi) bilan belgilanadi. Ma'lumki, hayotiy materialni tasvirlash xarakteri, badiiy asar asosida yotadigan konflikt xarakteri va uning hal etilishi, voqealar bayonining kim tomonidan | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | olib borilishiga qarab badiiy asarlar uch katta turga bo'linib tahlil etiladi. | |
| 6. | Folklorda motiv va syujet | Folklor asarlari strukturasida motiv va syujetlar muhim o'rin tutadi. Motivlar o'zaro birikib, syujetlarni hosil qiladi. Ayni paytda motivlar folklor asarlarida tutgan o'rni va ahamiyatiga qarab barqaror va nabarqaror motivlarga bo'linishi, ularning asar strukturasida tutgan o'rni, janriy xususiyatlari xususida bilim va tushuncha beriladi. | 2 |
| 7. | Folklor asarlari strukturasi | Folklorning yirik janri hisoblangan doston va ertaklar strukturasi boshlama, voqelar rivoji, kulminatsiya, yakun - xotima bilan alohida ajralib turadi. Boshlamalar ertak va dostonlarda an'anaviy qolip holatiga kelgan. Boshlamalar odatda tugun vazifasini o'taydi va voqelar rivojini yuzaga keltiradi. Voqelar rivoji esa o'z navbatida keyingi voqealar rivoji hamda kulminatsion voqelar uchun zamin vazifasini o'taaydi. Folklor asarlarining xotimasi qismi albatta yaxshilik bilan tugaydi. Xuddi boshlama kabi xotima qismi ham an'naviy qolip holatida keladi. Bu holat esa folklorga xos bo'lgan xususiyat va o'ziga xoslikni belgilab beradi. | 2 |
| 8. | Epos va uning ilmiy o'rganilish muammolari | O'zbek folklorshunosligidagi xalq dostonlarini ilmiy o'rganishga bagishlangan asarlar tahlili. X.Zarifov, M.Afzalov, T.Mirzayev, M.Saidov, M.Murodov, A.Kdxxorov kabi olimlarning eposshunoslikka oid ilmiy asarlari | 2 |
| 9. | «Alpomish» dostoni variant va versiyalarining qiyosiy o'rganilishi | "Alpomish" dostonniing Fozil Yo'ldosh o'g'li, Berdi baxshi, Po'lkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi variantlar boshqa ijro namunalari bilan o'zaro qiyoslanadi. Mazkur doston variantlarining o'rganilishi masalasi tahlil etiladi. | 2 |
| 10. | «Alpomish» dostonining qiyosiy o'rganilishi | Alpomish" va "Dada Qo'rqut kitobi"dagi motivlar qiyosan tadqiq etiladi. "Alpomish" va "Odisseya" o'rtasidagi o'xshashliklar ko'rsatiladi. | 2 |
| 11. | «Go'ro'g'li» turkum dostonlarining qiyosiy o'rganilishi | "Go'ro'g'li" dostonining O'zbekistonda yuzdan oshiq variantlari mavjud. Bu variantlar dostonning asosiy qahramoni Go'ro'g'li yoxud u asrab olgan farzandlari haqida. Bu variantlar yurtimizning har bir dostonchilik maktabida o'ziga xos tarzda kuylanadi. O'lkamizning janubiy dostonchilik maktabi vakillari kuylagan "Go'ro'g'li" bilan Xorazm baxshilari tomonidan kuylangan doston o'rtasida ma'lum o'xshashlik va farqliklar ilmiy asoslab beriladi. "Go'ro'g'li" dostonining o'zbek variantlari qiyosiy tadqiq etiladi. | 2 |
| 12. | «Rustamxon» turkumligining qiyosiy o'rganilishi | "Rustamxon" va "Murodxon" dostonlari bugungi kun folklorshunosligi talablaridan kelib chiqib atroflicha tahlil etiladi. | 2 |
| 13. | Epos va marosim folklorining qiyosiy o'rganilishi masalalari | Epos va marosim haqida so'z kelganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog'lab turuvchi eng muhim jihatni eposning xalq ijodining spetsifik namunasi sifatida marosim va marosim folklori bilan bevosita aloqadorligida ko'rishadi. | 2 |
| 14. | Eposda tug'ilish motivi | «Alpomish» dostonida qahramon – alpning tug'ilishi ilohiy xususiyat kasb etadi. Ilohiy tug'ilish folklordagi yetakchi motivlardan biri bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat. "Alpomish" dostoni misolida folklordagi tug'ilish motivi qiyosiy tadqiq etiladi. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 15 | Epik ijodda ko'makchi qahramon masalasi | Xalq dostonlari matni tahlili misolida epik ijoddagi ko'makchi qahramonlar tadqiq etiladi. | 2 |
| | | **Jami** | 30 |
| | | **II semestr** | |
| **1.** | Epik janrlar va ularning qiyosiy o'rganilishi masalalari | Olimlar shun paytga bu janrni besh turga: qahramonlik, romanik, jangnoma, kitobiy va tarixiy dostonlarga bo'lib tadqiq etib keladi. Biroq, so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar, matnlar tahlili bu tasnif tahlilga muhtoj ekanligini ko'rsatadi<br>Yangi talab va kelingan nazariy xulosalar asosida doston janri yangidan tasnif etiladi. | 2 |
| **2.** | Romanik va "Oshiq turkum" dostonlari | Xorazm dostonlari tarkibida "Oshiq" turkum dostonlari alohida ajralib turadi. Ushbu turkumga mansub dostonlarining o'ziga xos tabiati o'rganilib, bu tip dostonlarning asosiy syujet ko'rinishlari va yetakchi motivlari qiyosiy tadqiq etiladi. | 2 |
| **3.** | Eposda yetakchi obrazlar tahlili | Turli xil sabablar tufayli parchalanib ketgan millat og'ir sinovlardan so'ng yana qayta birlashishi, oila baxti, millatning, yurtning or nomusi, shonu-shavkati uchun kurash; yosh avlodni mard-jasur va komil inson qilib tarbiyalash «Alpomish» eposining bosh g'oyasini tashkil etadi. Bu bosh g'oya esa birinchi navbatda dostondagi Alpomish, Qalqirg'och, Barchin kabi obrazlar orqali tarannum etiladi<br>"Alpomish" dostoni misolida dostonlarimizda keluvchi yetakchi ayol obrazlari qiyosiy tahlil etiladi. | 2 |
| **4.** | Folklorda mifologik obrazlar va ularning qiyosiy talqini | O'zbek folkloridagi dev obrazi misolida mifologik obrazlar xos bo'lgan yetakmi tamoyillar yoritib beriladi. | 2 |
| **5.** | Qiyosiy folklorshunoslik fanining mazmun mohiyati va nazariy asoslari | Qiyosiy folklorshunoslik fanining mazmun va mohiyati, predmetning maqsad, vazifalari, metodologiyasi haqida atroflicha tushuncha beriladi. Folklor materiallari qiyosiy metod asosida tahlil etiladi. | 2 |
| **6.** | O'zbek xalq nasrining o'rganilishi | Har qanday nazariy xulosa janrlar tahlili orqali yuzaga kelar ekan, xalq nasriga oid janrlar tahlili bugun uchun zarur bo'lgan nazariy xulosalarga kelinadi. | 2 |
| **7.** | O'zbek xalq ertaklarining qiyosiy o'rganilishi | Turli dunyoqarashni ifodalab, rang-barang motivlardan tashkil topgan o'zbek ertaklari matni atroflicha qiyosiy tahlil etiladi. | 2 |
| **8.** | Folklorda tush motivi va uning qiyosiy o'rganilishi | Folklordagi tush motivi boshqa motivlar bilan qiyosiy tadqiq etiladi va asar strukturasi, badiiyatini ochib berishdagi o'rni atroflicha yoritiladi. | 2 |
| **9.** | O'zbek xalq qo'shiqlarining o'rganilishi | Ushbu ma'ruza doirasida o'zbek xalq qo'shiqlari va unga xos xususiyatlar, tasnifi masalalari talabalarga tushuntirib berialdi | 2 |
| **10.** | Xalq qo'shiqlarini tarixiy asoslariga ko'ra tekshirishlar | O'zbek xalq qo'shiqlari matni qatlamida saqlanib kelayotgan turl davrga oid mifologik tasavvurlar qiyosiy tahlil etiladi. | 2 |
| **11.** | Folklorda terma janri va uning tahlili | O'zbek folkloridagi baxshilar tomonidan ijro etib kelingan termalar qiyosiy tahlil etiladi. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. | O'zbek xalq maqollarining tasnifi va o'rganilishi | O'zbek xalq maqollarining variantliligi, tasnifları va badiiyati masalalari qiyosiy tadqiq etiladı. | 2 |
| 13. | Folklor va yozma adabiyotning qiyosiy o'ranilishi | «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Yusuf va Zulayho», xorazm dostonchligidagai «Tohir va Zuhra», «Malikai Dilorom» dostonlari misolida epik janr va yozma adabiyot munosabati maslasi tahlil etiladı. | 2 |
| 14. | Ruhiy tahlil metodi | Folklordagi ertak va doston janri misolida mazkur motiv atroflicha tahlil etiladı. | 2 |
| 15. | Epos va roman | "O'tkan kunlar" romanı tahlili misolida xalq dostonlari, epos va roman o'rtasidagı mushtarak xususiyatlar tahlil etiladi | 2 |
| | **Jami:** | 30 | |
| | **Umumiy** | 60 | |

## 2. Amaliy mashg'ulotlar

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| | **I semestr** | | |
| 1. | Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatları tahlili | Matn orqali mohiyat ochiladi | 2 |
| 2. | Turkiy miflar va ularning boshqa janrlarga ta'siri | Qiyosiy tahlil | 2 |
| 3. | Marosim folklori namunalari badiiyati va ularning tahlili | Badiiy matn tahlili | 2 |
| 4. | Dostonlarda nasr va nazmning baravar kelishi va ularning xos xususiyatlari | Nazm va nasr, uslub | 2 |
| 5. | O'zbek xalq dostonlarida qahramonga yordam beruvchi pir va eran obrazlari | Homiy obrazlari | 2 |
| 6. | "Kuntug'mish" dostoni tahlili | Asar matnini tahlil qilish | 2 |
| 7. | Dostonchilik maktablari va ularning an'analari | An'ana va qadriyatlar silsilasi | 2 |
| 8. | Sehrli ertaklar va ularning tahlili | Asar matni tahlili | 2 |
| 9. | "Alpomish" dostoni tahlili | Asar matni tahlili | 2 |
| 10. | "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tahlili | Asar matni tahlili Asar matni tahlili | 2 |
| 11. | Marosim qo'shiqlari: ijro o'rni va badiiyati | Asar matni tahlili | 2 |
| 12. | "Malikai Ayyor" dostoni tahlili | Asar matni tahlili | 2 |
| 13. | Bolalar qo'shiqlari | Asar matni tahlili Asar matni tahlili | 2 |
| 14. | Latifa, lof va askiya janrlari na'munalari tahlili | Asar matni tahlili | 2 |
| 15. | Lirik qo'shiqlardagi ramziylik | Obrazlilik, ramz, timsol | 2 |
| | **Jami** | | **30** |
| | **II semestr** | | |
| 1. | Dostonlardagi ko'makchi qahramonni tahlil eting | Asar matni tahlili | *2* |
| 2. | Xalq dostonlarini tasnif qilib bering | Dostonlar tasnifi borasidagi tadqiqotlar tahlili | *2* |
| 3. | Romanik va "Oshiq turkum" dostonlari matnini tahlil eting | Asar matni tahlili | *2* |
| 4. | Dostondagi yetakchi obrazlarni tahlil qiling | Asar matni tahlili | *2* |
| 5. | Folklor asarlaridagi mifologik obrazlarni tahlil qiling | Asar matni tahlili | *2* |
| 6. | Qiyosiy folklorshunoslikka oid matnni tahlil eting. | Asar matni tahlili | *2* |
| 7. | O'zbek xalq nasrini tasniflab bering | Xalq nasri janrlari tahlili | *2* |
| 8. | O'zbek xalq ertaklari matnini qiyosiy o'rganing | Asar matni tahlili | *2* |
| 9. | Epik asardagi tush motivini tahlil qiling | Asar matni tahlili | *2* |
| 10. | O'zbek xalq qo'shiqlarini tasniflab bering | Xalq qo'shiqlari tasnifi masalasi | *2* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | Xalq qo'shiqlarini tarixiy asoslarini misollar asosida tahlil eting | Asar matni tahlili | *2* |
| 12. | Folklorda terma janriga oid matnni tahlil qiling | Asar matni tahlili | *2* |
| 13. | O'zbek xalq maqollarini msiollar asosida tahlil eting | Asar matni tahlili | *2* |
| 14. | Folklor va yozma adabiyotning qiyosiy o'rganilishiga misollar keltiring | Asar matni tahlili | *2* |
| 15. | Ruhiy tahlil metodi asosida matnni tahlil qiling | Asar matni tahlili | *2* |
| | Jami | *30* | |
| | Umumiy | *60* | |

### 3. Mustaqil ta'lim:

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soat |
|---|---|---|---|
| | **I semestr** | | |
| 1. | Mustaqillik davriga oid xalq dostonlarini o'qish. | Dostonlar o'qish | 4 |
| 2. | Folklor tarixiga oid ilmiy asarlarni o'qish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 3. | Folklorshunoslik maktablari oid ilmiy tadqiqot bilan ishlash. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 4. | Folklorshunoslik metodlariga oid ilmiy adabiyotlar bilan tanishish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 5. | Folklor matnini tur va janrlarga bo'lib tahlil etish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 6. | Epik matndagi motiv va syujetlarni tahlil qilish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | *4* |
| 7. | «Alpomish» dostini strukturasini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 8 | Hozirgi zamonda yaratilgan doston matnini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 9. | «Alpomish» dostoni variantlari bilan tanishish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 10. | «Alpomish» va «Odessiy» dostonsh matnini o'qish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 11. | «Go'ro'g'li» turkum dostonlari matnini o'qish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 12. | «Rustamxon» turkumiga oid doston matnini o'qish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 13 | «Alpomish» dostonidagi marosmlarni tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 14 | Ertak matnidagi tug'ilish motivi tahlili. | Asar matni tahlili | *4* |
| 15 | «Alpomish» dostiindagi ko'makchi qahramonlarni tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 16. | Qaharomnolik, romanik va kitobiy doston matni bilan tanishish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 17 | Xorazm "Oshiq turkum" dostonlari matni bilan tanishish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 18. | Dostonlardgi yetakchi obrazlar tasnif etish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 19. | "Kuntug'mush" dostoni varaintlari matnini qiyoslash. | Asar matni tahlili | *4* |
| 20. | "Dalli" dostonidagi epik formulalarni qiyoslash. | Asar matni tahlili | *4* |
| 21. | "Alpomish" dostoni muqaddimasini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | *4* |
| 22. | Xorazm "Go'ro'g'li turkum dostonlari matnini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | *6* |
| | **Jami:** | | ***90*** |
| | **II semestr** | | |
| 1. | "Malla savdogar" dostoni variantlarini qiyoslash. | Asar matni tahlili | *4* |
| 2. | "Oltin qoboq" dostonidagi yetakchi motivlarni tahlil qilish. | Asar matni tahlili | *4* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3. | Folklorda mifologik obrazlar mavjud matnni tahlil qilish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 4. | Qiyosiy folklorshunoslik fanining mazmun mohiyatini matn asosida yoritib berish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 5 | Doston va ertaklardagi motivlarni o'zaro qiyoslash. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 6. | "Alpomish" dostoni va "O'tkan kunlar" romanidagi etakchi obrazlarni qiyoslash. | Asar matni tahlili | 4 |
| 7. | O'zbek xalq nasri matnlarini o'rganish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 8. | O'zbek afsona va rivoyatlari matnini qiyosiy tadqiq qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 9. | O'zbek xalq ertaklari matnini qiyosiy o'rganish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 10 | O'zbek sehrli ertaklari matnini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 11. | Folklorda tush motiviga oid matnni tahlil etish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 12. | O'zbek xalq qo'shiqlari matnini tahlil etish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 13. | Xalq qo'shiqlaridagi shomonlikk oid matn tahlili. | Asar matni tahlili | 4 |
| 14 | "Oq olma" o'zbek xalq qo'shiqlari to'plamidagi matnlarni tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 15. | Marosim folkloriga oid materiallarni tahlil qilish. | Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahli qilinadi | 4 |
| 16. | Terma matni bilan tanishish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 17. | Zamonaviy termalar matnini qiyosiy tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 18. | O'zbek xalq maqollarini o'qish | Asar matni tahlili | 4 |
| 19. | O'zbek xalq maqollarini turkiy xalqlar maqollariga qiyoslash | Asar matni tahlili | 4 |
| 20. | Farhod va Shirin dostonini o'qish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 21. | «Alpomish» dostoni matnini ruhiy tahlil metodi asosida tekshirish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 22. | «O'tgan kunlar» romanini tahlil qilish. | Asar matni tahlili | 4 |
| 23. | Bugungi folklor ijrochiligiga xos bo'lgan materiallarni to'plash. | Asar matni tahlili | 2 |
| | **Jami:** | | ***90*** |
| | **Umumiy** | | ***180*** |

## 6. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar


1. Мирзаев Т., Жураев М., Турдимов Ш., Эшонкулов Ж., Тиловов А. Узбек фольклори. Дарслик. – Тошкент: Тафаккур бустони, 2020. –240 б
2. Жураев М., Эшонкулов Ж. Фольклоршуносликка кириш. Дарслик – укув кулланма. Тошкент: Турон – икбол, 2018. – 176 б
3. Эшонкул Ж. Миф ва бадиий тафаккур. –Тошкент: Фан, 2019. –310 б.
4. Узбек фольклоршунослиги масалалари VI китоб. Тошкент: Фан ва таълим, 2017. -160 б.
5. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Узбекистон. 2012. –120 б.


### Qo'shimcha adabiyotlar


6. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга курамиз – Тошкент: Узбекистон, 2017.

7. Мирзиёев Ш. "Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида" қарор // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил 2 ноябрь.
8. Веселовский А. Историческая поэтика. – Л.: Высшая школа, 1989
9. Гринцер П.А. Древнеиндийский эпос. – М.: Наука, 1974.
10. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос.– Л., 1974.
11. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947.
12. "Алпомиш" ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999.
13. Зарифов Ҳ. Улкан халқ санъаткорлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликда тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1971.
14. Зарифов Ҳ. Фозил шоир – машҳур достончи // Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент, 1074. – Б.4-15.
15. Зарифов Ҳ. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пулкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.76.
16. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси – Тошкент: Фан, 2008
17. Кыдырбаева Р.З. Сказительское мастерство манасчи. – Фрунзе: Илим, 1984.
18. Лорд А. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994.
19. Мирзаев Т. "Алпомиш" достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: "Фан", 1968.
20. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: "Фан", 1979.
21. Мирзаев Т. Эпос и сказатель. – Тошкент: "Фан", 2008.
22. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. –Тошкент:Фан, 260 б.
23. Рузимбоев С. Хоразм достончилигида эпик анъана. – Урганч, 2008
24. Эшонкулов Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2008.
25. Алпомиш (достон). Фозил шоир варианти. Ёзиб олувчи М.Зарифий. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов, Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1999.
26. Алпомиш. Достон. Айтувчи Умир шоир Сафаров. Ёзиб олувчилар О.Собиров, Қ.Муҳаммедов. Нашрга тайёрловчилар Т.Мирзаев, Ж.Эшонкулов, Р.Чориев. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.234.
27. Алпомиш. Ўзбек халқ достони. Айтувчи Абдуназар Плёнов. Нашрга тайёрловчилар Ж.Эшонкулов, Р.Чориев. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.
28. Олтин қабоқ. Достон. Абдуназар Поёнов варианти. Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ж.Эшонкулов. — Тошкент: Академнашр, 2019. – 464 б.
29. Малла савдогар. Достон. Айтувчилар: Чоршa бахши Раҳматуллаев, Ўзбекистон халқ бахшилари – Шоберди Болтаев, Абдуназар Поёновлар. Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ж.Эшонкулов. — Тошкент: Академнашр, 2019. – 400 б.
30. Рустамхон. Муродхон. Достон. Ўзбек халқ ижоди ёдгорлиги. Кўп жилдлик. 11 –жилд. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Жаббоор Эшонкулов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2019. – 400 б.
31. Жорхун мастон. Достон. Айтувчи Қодир бахши Раҳимов // Нурали. Достонлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.
32. Кунтуғмиш. Достон. Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўғли. Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф. – Тошкент: Шарқ, 2011.

**Internet saytlari**

33. lectures.ndpi.uz>lektions
34. www.folklore.ru.
35. https://m.vk.com>club1962650
36. folklore.tomsk.ru
37. www.ruthenia.ru>folklore

## 7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| |
|---|
| O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202 2 yil "25 08" dagi "___" 1 sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor<br>S.Ashirboyev ____________ (imzo) |
| **Tuzuvchi:**<br>"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori<br>J.Eshonqulov ____________ *(imzo)* |
| **Taqrizchilar:**<br>O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo'limi boshlig'i, filologiya fanlari doktori<br>Sh.Turdimov ____________ *(imzo)*<br><br>Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, proffesor v.b.<br>M.Abdullayeva ____________ *(imzo)* |